

**Ziyot ERQULOV,**  
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail:erqulovziyodulla@gmail.com

F.f.d. O'.Tilovov taqrizi asosida

## **EKOLOGIK OQIBATLARINI BARTARAF ETISHDA MA'NAVY-INTELLEKTUAL OMILLARNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya

Maqolada davlat ekologik siyosatini amalga oshirishda ma'naviy-intellektual omillarning roli, ekologik vaziyati og'ir hududlarda amalga oshiriladigan ishlar samaradorligini oshirish zaruriyati, milliy ekologik siyosatni xalqaro standartlarga moslashtirish istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek Ekologik faoliyatning ma'naviy-intellektual asoslari, ularni rivojlantirishning subyektiv omillari strukturaviy-funksional tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik xavfsizlik, ekologik siyosat, tabiiy ofat, ekologik vaziyat, ekologik munosabat, ekologik muammolar, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik subyektlar, ma'naviy ekologik ehtiyojlar, ekologik halokat, barqaror ekologik muvozanat.

## **ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ ПРИ ЛИКВИДАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОСЛЕДСТВИЙ**

Аннотация

В статье рассматривается роль духовно-интеллектуальных факторов в реализации государственной экологической политики, необходимость повышения эффективности работы, проводимой на территориях со сложной экологической ситуацией, а также перспективы адаптации национальной экологической политики к международным стандартам. Также структурно и функционально анализируются духовно-интеллектуальные основы экологической деятельности, субъективные факторы ее развития.

**Ключевые слова:** Экологическая безопасность, экологическая политика, стихийное бедствие, экологическая ситуация, экологическое отношение, экологические проблемы, экологическая культура, экологическое сознание, экологические субъекты, духовные экологические потребности, экологическое разрушение, устойчивое экологическое равновесие.

## **FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND INTELLECTUAL FACTORS IN THE ELIMINATION OF ENVIRONMENTAL CONSEQUENCES**

Annotation

The article examines the role of spiritual and intellectual factors in the implementation of state environmental policy, the need to increase the efficiency of work carried out in territories with a difficult environmental situation, as well as the prospects for adapting national environmental policy to international standards. The spiritual and intellectual foundations of environmental activity and the subjective factors of its development are also structurally and functionally analyzed.

**Key words:** Environmental safety, environmental policy, natural disaster, environmental situation, environmental attitude, environmental problems, environmental culture, environmental consciousness, environmental subjects, spiritual environmental needs, environmental destruction, sustainable ecological balance.

**Kirish.** Hozirgi globallashuv sharoitda ekologik muammolar yechimida ma'naviy-intellektual omillarning ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo'lib bormoqda. Agar bu qonuniyat turli muqobil ta'limotlar tomonidan e'tirof etilsa, ularning umumiy murosaga kelishlariga, nisbatan universal ta'limotni yaratishga yo'l, imkoniyat topilgan bo'lar edi. Chunki, har qanday ta'limotning mohiyati ezgu maqsad sari yo'naltirilgan bo'lsa ham, hozirgacha, uning natijasi (parodoksal tarzda, favqulodda) kutilgandan butunlay boshqacha bo'lib chiqmoqda. Shuning uchun ham, tabiiy atrof-muhitga antropogen, texnogen omillar ta'sirida ro'y berayotgan o'zgarishlar, ma'naviy-intellektual omillarni mutlaqlashtirishdan iborat har qanday optimistik qarashlarni istisno qilgan holda, kompleks salbiy oqibatlariga olib kelmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuning turli jihatlarini jumladan, ekologik muammolarning umumsayyoraviy tus olishi A.Aymatov, Z.Kenjayev, S.Azamova, ekologik madaniyatni shakllantirishda diniy qadriyatlar va ta'lim tarbiyaning roli S.Mamashakirov, B.Omonov, F.Qilichev, O'.G'.Tilavov, G.A.Ochilova, Kh.Sh.Nomozov, Yu.Kh.Manzarov, B.A.Ochilov [2, 3, 4, 5, 6, 10], ekologik vaziyati og'ir hududlarda davlat ekologik siyosatining dolzarb masalalari B.Omonov, S.Mamashakirov [7, 8, 9] tadqiqotlarida tahlil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, qiyosiy tahlil kabi mantiqiy usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Ekologik inqirozlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilishda ma'naviy-intellektual omillar roliga nisbatan pessimistlarning bashorati haqiqat bo'lib chiqsa, insonning tabiiy yashash muhiti halokatga yuz tutsa, jamiyat barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishini, mo'tadil siyosiy muhitni ta'minlab bo'lmaydi. Demak, ekologik vaziyatning global keskinlashish tendensiyasi, unga nisbatan har qanday qarashlarni (turli iddaolarni, utilitar-merkantil manfaatlarini chetga surib qo'yib), ularning ratsional tomonlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi. Boshqacha qilib aytganda, tabiat ekologik muvozanati yaxlit tizim sifatida, o'ziga nisbatan ushbu yaxlitlikni ta'minlaydigan ma'naviy-intellektual munosabatni talab qiladi. Zero, faqat tabiatning ekologik muvozanat qonunlariga mos ma'naviy-madaniy faoliyat, inson va tabiatning dialektik birligini va kelgusi rivojlanishini ta'minlashi mumkin.

Shuning uchun "tabiat-jamiyat-inson" munosabatidagi markaziy muammo, ularning uyg'un rivojlanishiga, barqaror ekologik muhitni yaratishga imkon beruvchi inson omilining ma'naviy-intellektual asoslari tashkil qilish, mohiyatiga ko'ra, insonparvarlikni namoyon qilib, insoniyat sivilizatsiyasi taqdiri, ko'p jihatdan, shunga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu bilan birgalikda, insonning ma'naviy-intellektual imkoniyatlari tabiiy evolyutsiya natijasi ekanligini zamonaviy fan xulosalari uzil-kesil isbotlab bergan. Ya'ni rivojlanishning eng yuqori bosqichlari ham nisbatan quyi pag'onalarni dialektik inkor qilish natijasidir, degan nazariy-mantiqiy xulosaga asos bo'lgan. Lekin bu xulosaga ekologik faoliyatga nisbatan, yuqorida

ko'rsatilganidek: optimistik, pessimistik, skeptik, realistik, fatalistik, alarmistik yondashuvlarni inson va tabiiy muhit o'zaro ta'sirini izohlashning muqobil ko'rinishlari tarzida qarash kerak. Zero, ularning bugun va kelajakda insoniyat oldidagi global ijtimoiy-ekologik muammolar kompleksini hal etish yo'llari, vositalari, usullari haqidagi nazariy hamda amaliy ta'limotlari umumiy va nisbatan universal qarashlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarini ekologik talablar asosida tashkillashtiradigan, boshqaradigan va nazorat qiladigan ma'naviy-intellektual omillarning strukturaviy elementlari va ularning o'zaro ta'siri ko'p qirrali bo'lib, ekologik faoliyat yo'nalishlariga mos tarzda, muayyan funksiyani bajargan. Ekologik vaziyati keskin hududlarda esa, ularga alohida talablar qo'yilgan. Xususan, Orobo'yi mintaqasida ekologik faoliyat, inson organizmining tabiiy yashash muhitga moslashuv imkoniyatlarini reallashtirish uchun, uning ma'naviy-intellektual "ta'minotini" kuchaytirishni taqozo qiladi. Shunga ko'ra, insonning tabiatni (ekstensiv yoki intensivligidan qat'iy nazar) o'zgartirishi jarayonida, o'zaro bog'liq ikki vazifa kun tartibiga qo'yilmoqda, ya'ni: birinchisi – inson omilining jadal globallashayotgan va keskinlashayotgan ekologik vaziyat asoratlarini bartaraf etishda obyektiv shart-sharoitlarini yaratish imkoniyatlarini reallashtirish; ikkinchisi – inson organizmining biosfera ekologik muvozanati o'zgarishiga ijtimoiy-psixologik va jismoniy moslashish subyektiv asoslarini yaratishdan iborat. Aynan shu muammolar doirasida turli ekologik ta'limotlarning maqsadi va vazifalari umumiyligi namoyon bo'ladi.

Hozirgacha insoniyatning tabiatga munosabatida, moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishni mutlaqlashtirishi ekologik vaziyati keskin hududlarni vujudga keltirganligi haqidagi fikrlar, nisbatan ustuvor edi. Darhaqiqat, insonning ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish zaruriyatini anglashni va tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishda ma'naviy-intellektual omillarni e'tibordan chetda qoldirishi, o'zi va kelajak avlodlar hayotini muqarrar halok qilish xavfini yaratgan. Vaholanki inson, bir vaqtning o'zida: ham tabiiy, ham ijtimoiy borlig'ini o'zgartirishi va unga moslashishi bilan o'z mavjudligini ta'minlaydi. XX asrning yirik faylasufi M.K.Mamardashvili fikricha, inson tabiat tomonidan yaratilmagan, balki, uzluksiz ravishda, madaniyat tomonidan o'zining faol ishtirokida, amaliy xatti-harakatlari yordamida qayta-qayta yaratiladi [1].

Bu muammoni yanada chuqurroq o'rganish va konkretlashtirish uchun inson ijtimoiy-ma'naviy mohiyati tahliliga, umuman global muammolar, xususan ekologik muammo kontekstida yondashish maqsadga muvofiq. Chunki, hozirgi davrda insonning ijtimoiy mohiyatini, o'zi vujudga keltirgan global muammolardan tashqarida (ayniqsa, alohida olingan omilni mutlaqlashtirish orqali) izohlash g'oyat mushkul. Shuning uchun, inson mohiyatini nisbatan mukammal muhtarak-mujassam ifodalaydigan ma'naviy-intellektual salohiyatni (umumlashtirib aytganda, noosferani) determinlashtiruvchi universal omil sifatida e'tirof etish mumkin. Zero, inson hayoti va rivojlanishi asosi bo'lgan: tabiiy makon, ijtimoiy muhit, tarixiy davr hamda ma'naviy-axloqiy normalar tizimini qamrab oladigan ekologik munosabatlarni noosfera kontekstida kompleks-sistemali tahlil qilish, nisbatan to'liq ilmiy tasavvurlarni beradi. Shu o'rinda, ekologik muammolar globallashuvi va keskinlashuvi oldini olishda noosfera omiliga nisbatan skeptik munosabat borligini ham aytish joiz. Masalan, S.Mamashokirov: "Ilmiy adabiyotlarda noosfera ("Aql qobig'i) shakllanganligi haqida ko'plab optimistik fikrlar bildirilmoqda. Lekin hozir dunyoda inson faoliyati ta'sirida kechayotgan voqea-hodisalar sog'lom aqlga to'g'ri keladimi, degan ritorik savol javobsiz qolmoqda" [2], deb yozishida ham muayyan haqiqat borligini e'tirof etish kerak.

Inson mohiyatini, jamiyat ma'naviy-intellektual rivojlanish darajasidan mustaqil tarzda, "ijtimoiy munosabatlar majmuasi" sifatida izohlab, muayyan deterministik omilni mutlaqlashtiruvchi optimizm bir tomonlama, mavhum yoki utopik xarakterga egaligi, falsafa tarixida insoniyatning nazariy xulosalari va amaliy tajribalari bilan isbotlagan. Chunki insonning bioijtimoiy mavjudligini ta'minlaydigan munosabatlar majmuasi: tabiatning – insoniy, insonning – ijtimoiy tabiatini, ularning ijtimoiy-ontologik mazmunida ma'naviy-intellektual omillar ustuvorligini inkor etmaydi.

Har qanday muqobil ta'limot nuqtai nazaridan, insonning ijtimoiy mohiyati tabiatga qarshi emas, aksincha uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunga ko'ra, ilmiy adabiyotlarda "inson ijtimoiy-ekologik mohiyati", uning tug'ma biologik-irsiy xususiyatlari va ekologik faoliyatining ma'naviy-intellektual asoslari: barcha tarixiy davr, xalqlar va millatlar uchun umumiy universal qonuniyat tarzida izohlanadi [2]. Bu esa, o'z navbatida, insonning tabiiy-ijtimoiy huquqlari va erkinliklarini, ekologik faoliyatini ma'naviy-axloqiy mezonlarga, ratsional-intellektual asoslarga ko'ra optimal reglamentlashtirilishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Ekologik muammolar doirasidagi har qanday muqobil qarashlar uchun umumiy jihat, ishlab chiqarishni ekologik xavfsizlik va barqaror taraqqiyot manfaatlariga ko'ra, texnik-texnologik asoslarini takomillashtirish – umuminsoniyat sivilizatsiyasini saqlab qolish uchun zaruriy shartligini e'tirof etishidir. Zero, bugungi dunyoda har qanday davlatning: ijtimoiy, iqtisodiy, intellektual nufuzi moddiy ishlab chiqarish va informatsiya sohasida yangi ekologik texnologiyalarni qabul qilish hamda foydalanish qobiliyatiga qarab belgilanadi.

Shu mezonga ko'ra, hozirgi kunda ekologik vaziyatning global miqyosda keskinlashib ketishi bilan, ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasi va xususiyatlarini belgilash mezonida, uning ekologik xavfsizlik talablariga javob berishi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, ishlab chiqarishni zamonaviy texnika bilan jihozlash va texnologik jarayonini yangilashning ekologik ehtiyojlardan orqada qolishi, jismoniy hamda ma'naviy eskirishi, qoloqligi natijasida tabiiy atrof-muhit jadal antropotexnogen ifloslanmoqda.

Ayniqsa, mustaqillikka erishgan davlatlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davridagi tangliklar: korxonalarni loyihalashtirishda, qurishda, texnik-texnologik jihozlashda, ekologik talablarga e'tiborning susayishi bu jarayonni kuchaytirmoqda. Chunki sanoat korxonalari chiqindilarni qayta ishlovchi infrastrukturani shakllantirish, inshootlarini qurish, zamonaviy texnologiyani joriy qilishga mutasaddi mutaxassislarni tayyorlashga davlatlar iqtisodiy va tashkiliy jihatlardan tayyor emas, degan pessimistik va skeptik fikr ustuvorligi, ularning ekologik siyosatiga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarmoqda.

Darhaqiqat, bu tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur, yuqori intellektual ilmiy-texnik salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash qimmat turadigan va vaqt talab qiladigan tadbir hisoblanadi. Taqqoslash uchun aytadigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishida chiqindilarini tozalash texnologiyasining asbob-uskunalar qiymati, korxonalar asosiy fondlari tarkibida 20-30, hatto 40-50 foizni tashkil qiladi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga esa, yalpi ichki mahsulotning 5-7 foizi sarflanmoqda [7].

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishning hozirgi bosqichida sanoat ishlab chiqarish asosiy fondlari va yalpi ichki mahsulot tarkibida tabiatni muhofaza qilishga sarflanadigan moddiy resurslarning umumiy ko'rsatkichlari ham, ma'naviy-intellektual rivojlanish darajalari ham, milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlash talablariga javob bermaydi. Ayniqsa, iqtisodiyot qoloq texnologiyaga va ekstensiv usullarga asoslanib, tabiiy atrof-muhit muhofazasini kafolatlaydigan meyoriy qonun-qoidalar (har qancha mukammal bo'lishiga qaramasdan), ularning samaradorligiga erishib

bo'lmaydi. Qolaversa, arxaik texnologiya ham, noratsional usul-vositalardan ekstensiv foydalanish ham, ma'naviy-intellektual omillar noshudligi natijasidir.

Ekologik vaziyati bilan, jahondagi boshqa davlatlarga, ma'lum darajada, andoza bo'ladigan industrial rivojlangan mamlakatlarning tajribalari, sanoat ishlab chiqarish fondlari va yalpi ishlab chiqariladigan mahsulotlardan tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlariga sarflanadigan mablag'lar tarkibida ma'naviy-intellektual asoslarini mustahkamlash sohasiga doimiy oshirib borish zarurligini ko'rsatmoqda

Har qanday millatning ekologik ma'naviy-intellektual salohiyati, bir tomondan, tabiatga antropotexnogen ta'sir natijasida vujudga kelgan "su'iy" muhitga moslashishlarida namoyon bo'ladi. Ikkinchi tomondan, insonlarni keskin ekologik vaziyatga ijtimoiy-psixologik "ko'nikish effekti" shakllanishida ma'naviy-intellektual asoslar muhim rol o'ynaydi. Agar inson muayyan individual manfaatlarini mutlaqlashtirib, ehtirolarga berilib, har qanday ijtimoiy-tabiiy sistemani aql bilan mustahkam nazariy-metodologik asoslarga ko'ra tahlil qilmasa, bir-biriga qarama-qarshi muqobil ta'limotlar vujudga keladi. Shuning uchun – hozirgi davr realligi, turli ta'limotlarning (yagona mutlaq hahaqiqatga davogarlik qilib), bir-birlari bilan oxiri ko'rinmaydigan samarasiz demagogik munozaralarni davom ettirishni emas, balki o'tmishning achchiq tajribalaridan xulosa chiqarib, mavjud voqelikni bilishda ilmiy nazariy-metodologik asoslarga tayangan holda, umumiy murosaga kelishlarini taqozo qiladi. Bu esa, o'z navbatida, kelajak avlodlar barqaror ekologik taraqqiyotining ma'naviy-intellektual asoslariga doir konseptual yaxlit strategiyasini ishlab chiqishlari – insoniyat svilzatsiyasini muqarrar halokatdan qutqaradi. Zero, bunga muqobil yo'l yo'q.

Buning uchun, birinchidan, o'tmishning moddiy va ma'naviy ekologik qadriyatlarini merosini saqlab qolish va ijodiy rivojlantirishni; ikkinchidan, hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarning ekologik siyosati tajribalarini umumlantirish va ijodiy foydalanishni; uchinchidan, kelajak ekologik ideallariga turli falsafiy yondashuvlarning umumiy konsensus nuqtasini topib, nisbatan universal ta'limotni yaratish; to'rtinchidan, tarixiy davr taqozosiga ko'ra shakllangan ekologik qadriyatlar transformatsiyasini kuchaytirish va ideallarini reallashtirish; beshinchidan, ekologik ma'naviy qadriyatlarni ommaga transformatsiya qilishning usul-vositalarini, "texnologiyasini" takomillashtirish zaruriyatidan iborat.

**Xulosa va takliflar.** Ekologik faoliyatning ma'naviy-intellektual asoslarini, ularni rivojlantirishning subyektiv omillarini strukturaviy-funksional tahlil qilishdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi, ya'ni: birinchidan, ekologik ong – ma'naviy-intellektual faoliyatning substansional asosi sifatida, tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish subyektlarining ekologik borliqni – (dunyo ekologik manzarasini) oddiy, passiv in'ikosi emas, balki borliqni o'zgartirishning faol omili bo'lib, ijodiy xarakterga ega; ikkinchidan, ekologik ong strukturasi, rivojlanish darajalari va shakllari voqelikni konkret kishilar, ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini orqali aks ettiradi hamda muayyan ehtiyojlarni qondirishdan iborat amaliy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi; uchinchidan, ekologik ong tabiatni ehtiyojlarga ko'ra, o'zgartirish va o'zlashtirish jarayonida "moddiylashadi", ya'ni ekologik munosabatlarni: tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish faoliyatini, tartibga soladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мамардашвили М.К. Сознание и цивилизация. //Природа 1988 № 11. -С. 59.
2. Мамашакиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. -Т.: "Иқтисод-молия", 2012. 230 б.
3. Qilichev F. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishda diniy qadriyatlarining roli. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2022.
4. Tilavov O'.G'. Global barqaror taraqqiyotda ekologik partiyalarning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fals.f.d. (DSc) diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2021.
5. Omonov B.N. Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia // Turkish Online Of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, July 2021: 2541-2545. <https://www.tojqi.net/index.php/journal/article/view/4680>
6. Omonov Bahodir Nurillaevich, Ochilova Guzal Aralovna, Nomozov Khurshid Shavkatovich, Manzarov Yusuf Khurramovich, Ochilov Baxrom Aralovich
7. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2880/2583>
8. [https://www.scopus.com/sourceid/21100216519\\_984-989](https://www.scopus.com/sourceid/21100216519_984-989)
9. Мамашакиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дисс. на соиск. уч.степ.д.филос. н. – Т.: ТашГУ, 1997.
10. Omonov B. The use of water resources in the center of environmental policy in the region. The fifth international conference on history and political sciences. <https://elibrary.ru/tjvied>
11. Ochilova C.A., Amonov B.N., Azamova S.A, Manzarov Y.K. Ecological Globalization And Its Social Place In The Globalization System Of Processes. <https://sifisheressciences.com/journal/index.php/journal/article/view/1601/1638>
12. AZAMOVA, C. THE NEED TO FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION OF YOUTH IN THE CONDITIONS OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION.O 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/12] ISSN 2181-7324.